

# Mavzu: Bayramlarning vujudga kelishi. O'zbek xalq bayramlari tarixidan reja:

1. Bayramlar haqida tushuncha
2. Bayramlarning turlari va o'ziga xususiyati
3. O'zbek xalq bayramlari tarixi va ahamiyati
4. Mustaqillik davrida bayramlarga e'tibor va ularni o'tkazilishi

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2013 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”(Yangi tahrirda)gi Qonuni. – T.: “Adolat” nashriyoti 1998 yil
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 yil.
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2008 yil.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2011 yil.
6. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T.: 1996 yil.
7. Abdullayev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona, 1998 yil.
8. Abdullayev M. Abdullayev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona, 1998 yil.
9. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona, 2001 yil.
9. Shoniyo佐 K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: SHarq, 2001yil.
10. Murodov. M. Qorabayev U. Rustamova R . Etnomadaniyat.T.: Adolat, 2003 yil.
11. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T.: 2007 yil.
12. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T.: 2007 yil.
13. O'zbekiston Miliy ensiklopediyasi. 2.4.5.8.9.12 T. T.: 1997 yil
14. U.Qoraboyev. "O'zbekiston bayramlari", Toshkent, 1991 yil.

## Elektron ta'lim resurslari:

ww. tdpu. uz

www. Ziyonet. uz

www. edu. Uz

www. ma'naviyat. uz

[www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).

Insoniyat yaratilibdiki, uning turmush tarzida bayramlar alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Insoniyat hayotini bayramsiz, an'ana, marosim, urfatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar jamiyatning ma'naviy go'zalligini, xalqning yashahs tarzi, turmush sharoitini dunyoga ko'z-ko'z qiluvchi asosiy vositadir. Bayram hayotning eng nafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvchi ko'zgudir.

## **1. Bayramlar haqida tushuncha**

**“Bayram”** - turkcha so’zdan olingan bo’lib, to’y, marosim, xursadchilik degan ma’nolarni bildiradi.

**“Eortologiya”** – grekcha so’zdan olingan bo’lib – bayram haqidagi fandir.

Mazkur fanning yuzaga kelishida va uni ilmiy-nazariy jihatdan o’rganishda I.Sinegiryov, I.Saxarov, F.Buslayev, A.Afanasev, Ye.Anichkov , K.A.Mardjanov, D.M.Genkin, I.M.Tumanov kabi mutaxasislarning xizmatlari katta bo’lgan. Shuningdek M.Qoshg’ariy, Beruniy, Firdavsiy, Farobiy, Ibn Sino, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Behbudiy, Fitrat kabi Sharqning mutaffakkir olimu-fuzalolari ham bayramlarning ijtimoiy hayotdagi o’rni va roli haqida turli nuqtai-nazar bilan yondoshganlar.

*Shu soha olimlari bayramlarga baho berar ekan, “Bayram-bu ma’lum vaqtdagi ideal hayotdir”- deb ta’kidlaydi I.Mazayev.*

**“Bayram – har bir fuqaro va butun jamiyat hayotini aks ettiruvchi o’ziga xos ijtimoiy hodisadir. Bayram – bu voqelik bilan san’atni uyg’unlashtiruvchi, u yoki bu real hayotiy voqeani badiiy bezab ko’rsatuvchi o’ziga xos antiqa hodisadir”** – deydi D.M.Genkin

*“Bayram dunyo madaniyatida yig’ilgan eng qimmatli boyliklarni o’zida uyg’unlashtiradi”* – deb fikr yuritadi A.I.Arnoldov

Bayramshunos olim filologiya fanlari doktori, professor U.Qoraboyev “O’zbek xalq bayramlari” kitobida o’zbek bayramlarining xususiyatlari haqida to’laqonli fikr bildirib, “O’zbek bayramlari mohiyatan boshqa xalqlar bayramlaridan farq qilmaydi, ular ham orzu, mehnat, kurash ifodasi, an’analar, go’zallik ko’zgusi, tinchlik hamjihatlik, tenglik, hayotning davomi, muhim qismidir” – deb ta’kidlaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida kelib chiqishi, mazmuni, ijtimoiy hayotda qaror topishiga ko'ra *an'anaviy*, *diniy*, *milliy* va boshqa bayramlar vujudga keladi.

***An'anaviy bayramlar*** – avloddan avlodga meros tariqasida o'tib keladigan bayramdir. Bu bayram biror xalq yoki millatning ayni vaqtdagi ijtimoiy turmushi, hayot kechirish tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Masalan: Navro'z bayrami.

***Diniy bayramlar*** – har bir moneteistik dinning aqidalarida belgilab qo'yilgan marosimlar.

## **2. Bayramlarning turlari va o'ziga xos xususiyati**

Baytamlar spesifikasiga ko'ta bir qancha turlarga bo'linadi.

### ***I. Ijtimoiy-siyosiy bayramlar:***

- 1-sentyabr – “Mustaqillik kuni”
- 8-dekabr – “Konstitutsiya kuni”
- 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni
- 9- may – Xotira va qadrlash kuni
- 21-oktyabr – Til bayrami

## **II. Milliy bayramlar:**

- Navro'z bayrami
- Qovun sayli
- Gul sayli
- Suv sayli
- Olma sayli
- Qum sayli
- Lola sayli
- Qushlar bayrami
- Ona yer saxovati bayrami
- Mehrjon bayrami

### **III. Mehnat bayamlari:**

- Birinchi chigit qadash bayrami
- Hosil bayrami
- Paxta bayrami
- Birinchi gul bayrami
- Birinchi karvon bayrami

#### **IV. Diniy bayramlar:**

- Qurban hayiti
- Ramazon hayiti

#### **V. Kasb bayramlari:**

- O'qituvchi va murabbiylar kuni
- Radio kuni
- Shifokorlar bayrami
- Ishki ishlar xodimlari kuni
- Matbuotchilar kuni
- Temir yo'lchilar kuni

## VI. Kalendar bayramlari:

- 1-yanvar – yangi yil bayrami
- 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami
- 1-iyun – Xalqaro bolalar kuni
- 1-aprel – Kulgi va hazil kuni

## Bayramning o'ziga xos xususiyati:

- unda keng ommanning ishtirok etishi;
- Bayram avvalo ko'pchilik uchun uyushtiriladi va u bevosita odamlarning ishtirokida o'tadi;
- bayramlarning bir necha tadbirlar sintezidan tashkil topishidir

### **3. O'zbek xalq bayramlari tarixi va ahamiyati**

O'zbek xalq bayramlarinin o'rganishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- Ibtidoiy davrda vujudga kelgan bayram shakllari; (ovchilik o'yinlari, zoofagik (ya'ni, totem hisoblangan hayvonlarga sig'inish), mehnat o'yinlari,
- O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy islomgacha bo'lган bayramlari
- O'rta asrlardan inqilobgacha bo'lган davrdagi o'zbek bayramlari
- Sho'rolar davridagi bayramlar;
- Mustaqillik davridagi bayramlar;

## Markaziy Osiyo xalqlari bayramlari

Navro'z

Gul sayli

Suv sayli

Mehrjon

Qovun  
sayli

Xirmon  
to'yi

Vakxix

Bobaxvara

Garm-  
Xvara

## Zardushtiylik dini bilan bog'liq bayramlari

Navro'z

Sada

Angom

Nimsarda  
(mexrjon)

Tirgon

## *Islomgacha bo'lgan bayramlar*

- "ro'zi isfandarmo'z" bayrami - Isfandarmo'z so'zining mao'nosi "aql" va "muloqaza" demakdir ("Isfandar-mo'z" yerga qamda soliqa, nomusli, yaxshi ishlar qiluvchi va eriga muqabbatli xotinga vakil qilingan farishtaning nomi qamdir).
- Hozirgi kun uchun qiziqarli va kerakli bayramlardan biri – -bu -"Murdodangan“ bayrami bo'lib, u o'ziga xos tinchlik bayrami hisoblangan. Beruniyning fikricha, bu bayramning lug'aviy mao'nosi "o'limsiz - mangu qayot" demakdir.
- Islomgacha bo'lgan bayramlar o'sha davrning o'ziga xos qonuniyatlari va ijtimoiy xususiyatlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ularni chuqurroq tushunish uchun har biriga o'sha davr nuqtai nazaridan yondashish kerak.

## Islom dini bilan bog'liq bayramlari bayramlari

Ro'za hayiti

Qurban hayiti

Mavlud

## O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davri bayramlari

Navro'z

Xotira kuni

Birinchi  
pushta

Boychechak

Uztozlar  
bayrami

Til bayrami

Konstitutsiya  
kuni

Mustaqillik  
bayrami

Xotin qizlar  
bayrami

Yangi yil  
bayrami

Ro'za hayiti

Qurban hayiti